

14-yanvar – Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan ma'naviy-ma'rifiy tadbir o'tkazildi

// 13 January 2023 yil

<https://pda.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/vatan-himoyachilari-kuni-munosabati-bilan-manaviy-marifiy-tadbir>



"O'zkimyosanoat" AJ tomonidan O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 31 yilligi va 14-yanvar - Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan "Vatan bilan ulg'ayar shon-u shavkatim!" shiori ostida ma'naviy-ma'rifiy tadbir tashkil etildi. Unda "O'zkimyosanoat" AJ hamda tarmoq korxonalarini rahbar va xodimlari ishtirok etishdi. Dastlab Jamiyat rahbariyati tomonidan tizimda faoliyat yuritayotgan, shu bilan birga, yurtimiz tinchligini ta'minlashga ulkan hissa qo'shayotgan barcha Vatan himoyachilariga samimiy bayram tabrigi yo'llandi.

Ko'tarinki ruhda o'tgan tadbir davomida tizim korxonalarini vakillari tomonidan bayram tabrigi sifatida she'r va qo'shiqlar, shuningdek, turli xil sahna ko'rinishlari ham namoyish etildi.

Shuni ham alohida ta'kidlab o'tish lozim, "O'zkimyosanoat" AJ tarmoq korxonalarini barchasida O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 31 yilligi va 14-yanvar - Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan qator bayram tadbirlari o'tkazilmoqda.









[uzkimyosanoat](#)

[uzkimyosanoat.uz](#)

(+99878) 140-74-26



“O'zkimyosanoat” AJ Matbuot xizmati